

2022-yil 1-sentabrdan avtomobil boshqarish uchun elektron ishonchnoma rasmiylashtirish narxlari:

1 oygacha:  
90 ming so'm

6 oygacha:  
450 ming so'm

3 yilgacha:  
900 ming so'm

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 46 (16499)  
2022-yil, 9-iyul  
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Kun mavzusi**  
2-bet

Zamonaviy kasblarga  
1 million dollar investitsiya

**Siz nima deysiz?**  
5-bet

IELTS uchun  
o'qimoqchimisiz?

**Muzey va yoshlar**  
7-bet

G'aroyib  
tabiat muzeyi



Foto: Anvar TO'YCHIEV

# QURBON HAYITI

## KENG NISHONLANMOQDA

Ulug' allomalarimiz "Hayit kunlari shodlikni izhor qilish dinning shiorlaridandir", – deganlar. Islomning shiori bo'lgan Qurban hayitida xursandchiligimizni, saxovatimizni har qachongidan ko'ra ko'proq namoyon qilishimiz zarur.

batafsil  
6-bet


# ZAMONAVIY KASBLARGA 1 MILLION DOLLAR INVESTITSIYA

**DASTURCHILIKDA  
O'RTACHA 400 AQSH  
DOLLARIDAN 2000 AQSH  
DOLLARIGACHA MAOSH  
OLISH IMKONI BOR.**

**D**asturchilik jahon miqyosida juda qadrlanadigan, kelajagi porloq va anchagina daromadli kasbga aylanib bormoqda. Millionlar ro'yxatidagi badavlat insonlarning ko'pi IT sohasidagi gigantlardir. Misol uchun, Jeff Bezos (Amazon), Mark Sukerberg (Facebook), Bill Geyts (Microsoft). Ularning dasturlari doimiy ishlab turishi uchun dasturchilar kerak. Shu jihatdan ham oliy ta'lim muassasalari o'z konsepsiyasini o'zgartiryapti. Masalan, AQShning Silikon vodiysi (mashhur texnologik kompaniyalar joylashgan joy)ga borsangiz, 4 yillik diplom emas, axborot texnologiyalari bo'yicha oylik kurslar sertifikatining o'zi kifoya qilmoqda.

O'zbekistonda kuzatuvlardan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur sanoatda bir necha yildan beri faoliyat yuritib kelayotganlar 400 AQSH dollaridan 800 dollarigacha, tavsiya qilinadigan tajribaga ega bo'lganlar esa 1 200-2000 AQSH dollarigacha maosh oladi. Mahalliy bozorda Frontend, Backen, PHP dasturchisining ish haqi o'rtacha 8-10 million so'mdan 20-30 million so'mgacha, 1C dasturchisining 3 million so'mdan, Fullstack dasturchi-

**Bu yil o'rta ta'limni 390 mingdan ziyod bitiruvchi tugatdi. Ularning oldidagi eng asosiy tanlov – kasb tanlash. Tabiiyki, ularda kelajak uchun eng yaxshi kasb qaysi, yaqin 10 yil ichida qay bir sohadan kattaroq daromad topish mumkin, bugungi kunda qanday mutaxassislar talab kuchliroq degan savol tug'iladi. Xo'sh, bugungi kunda O'zbekistonda istiqbolli kasblar qaysi?**



siniki esa 10-15 million so'mda 20-30 million so'mgacha bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, IT kasblar ro'yxatidagi Web-dasturchi, SMM, SEO mutaxassisi, kontent menejeri, kopirayter kabi kasblar ham yuqori talabga ega, serdaromad kasblar sanaladi. Yoshlar orasida ham bu sohalarini o'rganishga qiziqish yildan yilga oshib bormoqda. Ammo...

Dasturlashni o'rganish uchun ingliz tilini bilish shart. Kimdir bu o'quv kurslariga borish uchun moliyaviy jihatdan qiynalsa, boshqa birov o'quv markazi topa olmay halak. Negaki chekka qishloqlarda

bu kasblarni o'rgatish uchun birov o'quv markazi topilmaydi. Mablag' ham, markaz ham topganlarning ko'pchiligi ish topa olmay sarson.

Bu kabi muammolarga yechim topish maqsadida **Yoshlar ishlari agentligi jamoasi yangi loyihaga qo'l urdi**. Loyiha avvalida yoshlarni zamonaviy kasblar va xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan o'quv markazlar rahbarlari bilan hamkorlik yuzasidan muloqot o'tkazildi. Suhbat davomida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblar va xorijiy tillarni o'rganish uchun mablag' ajratish, o'quv markazlarini turli soliqlardan

**Shahruza SATTOROVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

ozod qilish, o'quv markazlarni tugatgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, chekka qishloqlardagi o'quv markazlarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar ko'rib chiqildi. Yurtimizning barcha viloyat, tuman o'quv markazlari rahbarlarining fikrlari eshitildi, takliflar inobatga olindi.

– O'quv markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasida katta dastur bo'yicha ishlayapmiz. Bu dastur ko'plab yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil qilishga qaratiladi, – deydi **Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev**. – Ko'p o'quv markazlari bizga o'z loyihalari bilan chiqadi. Biz har biri bilan yaqindan tanishib, qo'llab-quvvatlayapmiz. Oldimizda turgan asosiy masala zamonaviy kasblarga o'qish istagi bor yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ko'proq imkoniyat va sharoitlar yaratib berishdir. Bu loyihaga kiritayotgan investitsiyamiz 1 million dollar. Bu mablag'lar o'z vaqtida joyiga borsa, bu juda katta natija beradi.

Zamon o'zgarib borayapti, talab va taklif ham shunga yarasha. Kompyuter texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar dunyoda yetakchi o'rinda. Nafaqat yaxshi kasb, yaxshi maosh, balki davlat taraqqiyoti ham bu kabi kasblar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Aynan shuning uchun yuqoridagi kabi loyihalarni ko'paytirish, yoshlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiq.

## KONSTITUTSIYA – BARCHA YUTUQLARIM SABABCHISI



**Maktabni bitirgach sobiq sho'rolar Qurolli kuchlarining harbiy dengiz flotida muddatli harbiy xizmatni o'tadim. Xizmat Rossiyaning chekka o'lkasi – Xabarovskda bo'ldi. Men bilan harbiy xizmatga chaqirilgan ba'zi yigitlar ob-havoga moslasha olmay kasal bo'ldilar, ayrimlari vafot etdi. Komandirlar bu o'limlarni tabiiy deb hisoblab, ular Vatan uchun jon fido qildilar, deb jar solishdi. Vaholanki, ular dushmanlarni daf etish vaqtida emas, balki issiq o'ikalardan sovuq o'ikalarga kelib, ob-havo injiqliklariga ko'nikolmay, qattiq o'pka shamollashidan qurbon bo'lgan edi.**

1992-yil 8-dekabr kuni tarixiy kun hisoblanadi. Chunki o'sha kuni mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi qabul qilindi. Biz 1991-yil 31-avgustda Mustaqillikka erishgan bo'lsak-da, sobiq sho'rolar davrida qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi o'sha kunga qadar amalda edi. Mazkur hujjat boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalarning konstitutsiyalari bilan bamisoli egizak edi.

Yodimdan chiqmaydi, dadam: "Ana endi haqiqatda yurtimiz mustaqil bo'ldi. O'zbekiston o'zining mustaqil Konstitutsiyasini qabul qildi. Endi 8-dekabr bayram sifatida keng nishonlanadi va bu Konstitutsiya kuni deb e'tirof etiladi", – degandilar. O'sha 8-dekabr kuni meni Ichki ishlar vazirligi Oliy millitsiya maktabiga ishga qabul qilishdi. Bu ham quvonchli voqea edi.

Buni qarangi, 2004-yil IIV Akademiyasida faoliyat yuritgan kezlrimda o'tkazilgan attestatsiya savollari ham, asosan, ta'limga oid bo'lib, barchasi Konstitutsiyamizning 41, 42-moddalari doirasida edi. Men

**To'liq SAYDALIYEV,**  
Jamoat xavfsizligi universiteti, professori,  
istefodagi podpolkovnik

har bir savolga Konstitutsiyadan o'rinni iqtibos keltirib javob berdim. Bu to'g'ri taktika bo'lib, tekshiruvchilar mening javoblarimdan qoniqishdi va o'sha xungi natijalar bo'yicha menga rag'batlantiruvchi mukofot ham berishdi. Ichki ishlar vazirining faxriy yorlig'i bilan taqdirlashdi. Men yana bir bor mening Konstitutsiyam meni himoya qilishiga amin bo'ldim. Shu tariqa xizmat davomida ham, kundalik turmushimda ham Konstitutsiyamizning qator moddalariga asoslanib faoliyat olib bordim va hayotda ham amal qildim.

Yoshlarga hayotimdagi qiziqarli hodisalarni ko'p marotaba aytib beraman va Konstitutsiyamizni hurmat qilishga, uning bergan huquq va erkinliklaridan oqilona foydalanishga hamda xizmat faoliyatida unga so'zsiz amal qilishga da'vat qilaman.

**“**  
KONSTITUTSIYAMIZNING  
41-MODDASIGA ASOSAN, YOSHIM 38  
DA BO'LSA-DA, IIV AKADEMIYASIDA  
SIRTDAN TA'LIM OLISHGA MUVAFFAQ  
BO'LDIM. CHUNKI TARTIB-QOIDAGA  
KO'RA, SIRTQI TA'LIMDA HAM YOSH  
CHEGARALANGAN BO'LIB,  
FAQAT 35 YOSHGACHA  
OLISHAR EDI.

132

## ISH O'RNINI TAKLIF QILINDI

Xo'jabod tumanida uyushmagan yoshlar uchun o'tkazilgan mehnat yarmarkasida turli tashkilot va ishlab chiqarish korxonalarini hamda tadbirkorlar tomonidan 132 ta ish o'rnini taklif qilindi.

Yarmarkada qatnashgan 200 nafardan ortiq yoshlarning 41 nafari shu kunning o'zida ishga joylashdi.

Nazira UBAYDULLAYEVA



## SIYOSIY MULOQOT VA O'ZARO ISHONCH MUSTAHKAMLANDI

Tashqi siyosat mavzusi oldinlari tor doiralarda ko'rib chiqilgan bo'lsa, bugun u siyosiy debatlarida ochiq muhokama qilinmoqda. Shu bois xalqaro maydonda o'zaro manfaatli diplomatik aloqalarni yuritish siyosati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi e'tirofga molik ishlarni amalga oshira oldi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari qo'shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o'zaro ishonch mustahkamlandi, prezidentlarning maslahatlashuv uchrashuvlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining pragmatik siyosatini davom ettirgan holda tashabbuslarini bosqichma-bosqich amalga oshira oldi. Bu borada xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilib, O'zbekiston xalqaro darajada tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etmoqda. Mamlakatimiz dunyoga keng ochilayotgani, iqtisodiyotimiz jahon bozorlariga integratsiyalashib borayotgani, tashqi iqtisodiy hamkorlikni keng miqyosda yo'lga qo'yish jadal sur'atlarda olib borilayotgani, shuningdek, bugungi taraqqiyot talabari aynan tashqi iqtisodiy siyosatimiz gorizontali kengayishini talab etayotganini aytib o'tish joizdir.

Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri o'z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Prezident Shavkat Mirziyoyev qo'shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnihilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab berdi.

“

AFG'ON MASALASIDA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TA'SIRI VA OVOZI HAR QACHONGIDAN HAM KUCHLIROQ YANGRASHI LOZIM.

Hozirgi kunda ham Afg'oniston masalasi kun sayin dolzarblashib bormoqda. Ammo keyingi besh yilda Afg'oniston bilan munosabatlar yangicha bir formatda rivojlandi. Afg'oniston bilan suv resurslari va ekologik muammolar, transchegaraviy muammolarini birgalikda hal etishni o'z ichiga olgan hamkorlik munosabatlari shakllantirildi.

BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi doirasidagi umumiy munozaralarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev videomurojaat bilan so'zga chiqib, Afg'oniston muammosi haqida gapirar ekan, "Bu davlatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilishidan nafaqat biz, qo'shni mamlakatlar, balki butun dunyo manfaatdordir. Hozirgi qiyin davrda Afg'onistonni yakalab, uni muammolar girdobiga tashlab qo'yish mumkin emas. Afg'on masalasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'siri va ovozi har qachongidan ham kuchliroq yangrashi lozim", — deb ta'kidladi. Prezidentimiz o'z nutqining so'ngida Afg'onistonni Markaziy Osiyoning bir bo'lagi sifatida ekanligini va doim shunday bo'lib qolishini aytib o'tdi.

Jamiyatda axborot almashinish sohasi nihoyatda tez sur'atlarda o'sib borayotgan asrda yashayotgan ekanmiz. Globalizatsiya jarayonlarining ta'sirini ham hisobga olish lozim. Jumladan, Globalizatsiya jamiyatning siyosiy tizimida davlatning mavjud ahvolini, holatini o'zgartirmoqda. Globalistlarning fikricha, "bugungi kunda davlatlar o'zining milliy o'zligini asta-sekin yo'qotmoqda, davlat suvereniteti zaiflashmoqda".

Prezidentimiz ta'biri bilan aytgandek o'z bolamizni o'zimiz asramog'imiz lozimligini bugun hayotning o'zi yana bir bor ko'rsatib bermoqda.

Akmal BOZOROV,

Jamoad xavfsizligi universiteti  
iqtisodiy fanlar kafedrasida professori

81%

## YOSHLARGA AMALIY YORDAM KO'RSATILDI



"Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan qator tadbir va loyihalar amalga oshirilmoqda. Yetakchilarning asosiy vazifalaridan kelib chiqib hafta kunlari belgilab olingan. Masalan, dushanba – yoshlar muammolarini o'rganish; seshanba – kitobxonlik, axborot texnologiyalari; chorshanba – tadbirkorlik kuni; payshanba – profilaktika kuni; juma – harbiy vatanparvarlik kuni; shanba – madaniy tadbirlar; yakshanba – sport va turistik tadbirlar kuni etib belgilandi.

Jamshidjon  
CHORIYEV,

Yoshlar ishlari agentligining  
Surxondaryo viloyati bosh-  
qarmasi boshlig'i



Shunday chora-tadbirlardan yana biri "Yoshlar daftari"dir. Yil boshidagi xatlov va o'rganishlar natijasida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 17 ming 644 nafar yoshlarning 14 ming 435 nafar (81,8 foiz)iga amaliy yordam ko'rsatildi. Jumladan, 558 nafar yosh ishga joylashtirildi. 7327 nafar yoshlarga yer ajratilgan bo'lsa, 16 nafari "Ustoz-shogird" an'anasi asosida hunarmandlarga birlashtirildi. 52 nafar yoshlarga turar joy ijarasi xarajatlari qoplab berildi. 447 nafariga esa o'zini o'zi band qilish orqali "Yoshlar daftari"dan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Yoshlar bandligi masalalariga kelsak, 2022-yil davomida "Yoshlar daftari" tizimi orqali 46 ming nafar yoshlar qamrab olinib, ularni kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka o'rgatish orqali ish va daromad manbayi bilan ta'minlash belgilandi. Bunga Bandixon tumanidagi "Bektepa" mahallasida istiqomat qilib kelayotgan Jam-

shid Jo'rayevni misol qilishimiz mumkin. U joriy yil boshida "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 33 million so'm kredit oldi. Jamshid ushbu mablag'larga sartaroshxona uchun kerakli bo'lgan asbob-uskuna olib, faoliyat yuritib boshladi. Hozir 2 nafar shogirdiga sartaroshlik sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Ekin maydonlari ajratish orqali 7327 nafar (47,6 foiz) yoshlarning bandligi ta'minlangan. Ayni vaqtda yosh dehqon va fermerlar tomonidan yetishtirilayotgan poliz ekinlari pishib yetildi. Hosillar yig'ib olinib, mahalliy bozorlarga hamda eksportga yo'naltirilmoqda. Jumladan, Termiz tumanidagi "Nurmuhammad Maftuna" fermer xo'jaligining 10 gektar yerida qovunning hosildor ertapishar "Dagara" navi ekilgan bo'lib, 350 tonna qovun olish rejalashtirilgan. Yoshlar mavsum boshidan buyon har kun 10 tonnadan hosil yig'ishtirib, mahalliy va xorijiy bozorlarga yetkazib bermoqda.

# A S Q A R B E K



**Asqarbek QILICHEV,**  
"Hunarmand"  
mahallasi yoshlar  
yetakchisi

Ko'pchilik mahalladagi yoshlar yetakchilari lavozimga tayinlangandan keyin mahalla yoshlariga yordam berishni boshlagan bo'lsa, bugun biz faoliyatini yoritishni istagan qahramonimiz esa aksincha, mahalladagi yoshlarga doimiy ko'maklashib kelgani bois mazkur lavozimga saylangan.



**Iqbol PARDAYEVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

**X**orazm viloyati Bog'ot tumani "Hunarmand" mahallasidagi yoshlarga yetakchilik qilayotgan Asqarbek Qilichev asli tadbirkor. Mahallada "Book cafe", sport majmualari, dorixona, oziq-ovqat do'konidan iborat yirik savdo markazini barpo qilib, ko'pchilik yoshlarni ish bilan ta'minlagan. Qolaversa, mazkur majmuadagi sport kompleksidan foydalanishni avvaliga kech soat 18:00 qadar, mahallada yoshlar yetakchisi etib tayinlangach barcha uchun tun-u kun to'lovsiz foydalanishga ruxsat bergan.

uchun 66 million so'mlik imtiyozli kredit olishga ko'maklashdim. Bunda ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib yurgan kezarimdagi tajribam ish berdi. Yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, hamma ishga boshqosh bo'ldim. Bu ikki yangi tadbirkor yigitlar ko'chadagi qolgan barcha ishsiz yoshlarni ishli qildi.

Ikkinchi Orol ko'chamizda tikuvchilik sexini ochdik. Oilasida hech kim doimiy ish bilan shug'ullanmagani uchun bir nafar qizimizga subsidiya asosida tikuv mashinasi ajratib berdik. U esa xonadonlardagi ishlatilmayotgan mashinalarni yig'ib, savdo markazimizdan ajratilgan

ekin yeri ajratildi. Hozir yosh dehqonlar hosilini yig'ish arafasida.

– Hech bir yoshning qiziqishini e'tiborimdan chetda qoldirmaslikka harakat qilayapman, – deydi **Asqarbek Qilichev.** – IT yo'nalishiga qiziqadigan 3 nafar yoshimizga "Bir million dasturchi" loyihasi bo'yicha kompyuter sotib olishga ko'maklashdim. Oylik foizi esa Yoshlar ishlari agentligi hisobidan to'lab berildi.

Asqarbek yoshlardan savdo markazidagi sport kompleksidan tashqari kompyuter markazi, tadbirkorlardan ijara puli va "Book cafe"dagi kitoblarni o'qiganlardan ham hech qanday haq olmaydi.



– O'tgan 6 oy davomida "Hunarmand" mahallasining yoshlariga 41 million 100 ming so'm miqdorida yordam ko'rsatildi, – deydi **mahalla yoshlar yetakchisi Asqarbek Qilichev.** – Ayni yordamdan foydalangan bir nafar yigitimizga subsidiya asosida hunarmandchilik asbob-uskunalar ajratildi. Yosh oila sifatida yordam so'ragan Ortiqjon Matnazarov hozir nafaqat o'z oilasi, balki akasini ham yoniga olib, uning oilasi uchun ham daromad manbayi yaratdi.

Yetakchilikka tayinlanganidan so'ng birinchi bo'lib mahallamizda "Namunalik ko'cha" tashkil etishga kirishdim. Tanlab olingan Qarag'ay ko'chasining 11 nafar ishsiz, uyushmagan yoshlarini saralab, ularning orasidan 2 nafar yoshga hunarmandchilik bilan shug'ullanishlari

xonada tikuv sexi faoliyatini yo'lga qo'ydi. Hozir u ko'chasidagi 10 nafar ishsiz yoshlarga tikuvchilik sirlarini o'rgatmoqda. Qizlar tikkan ko'ylaklarini tuman markazidagi bozorga olib chiqib, yaxshigina daromadga kirishgan. Shu tariqa, qolgan ko'chalarda ham tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, ko'cha yoshlarining bandligini ta'minlash harakatidaman.

Mazkur loyihamni "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchisining o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida taqdimot qilganimda tashkilotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangandi.

Asqarbekning aytishicha, mahallada dehqonchilikka qiziqadigan yoshlar ham bor. Ularning ikki nafariga 15 sotixdan auktsion orqali

Hammani qiziqirgan bir savol bilan unga yuzlandik: nahotki 500 million so'm xarajat qilib, daromad topish maqsadida bunyod etgan markazingizdan foyda olishga qiziqmaysiz?

– Aslida menga oziq-ovqat, dorixona va "fast food"dan olingan daromadning o'zi yetarli, – deydi **yoshlar yetakchisi.** – Qolgan yoshlarimiz uchun. Buni mahalla yetakchisi bo'lganim uchun emas, yoshligimda qiyinchilikda katta bo'lganim, bunday imkoniyatlar bo'lishini hatto orzu qilolmaganimiz, endi esa yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarga o'z hissamini qo'shishga qodir qilganligiga shukrona keltirib, ulardan haq talab qilmayman.

Biz esa bunday yetakchilar borligiga tasanno aytib, ularning safi yanada kengayishi tarafdorimiz.

"YOSHLAR  
DAFTARI"  
KO'MAGIDA

O'Z  
YO'LIMNI  
TOPDIM



**Bobur SOBIROV,**  
Mingbuloq tumanidagi  
"Kichik Jomashuy"  
mahallasidan

– 27 yoshdaman. Oilaviy ahvolimiz og'irligi, otam yo'qligi, onam nogironligi sababli oilamizda yolg'iz boquvchi o'zimman. Shu paytga qadar ro'zg'or tebratish uchun har ishga qo'l urib ko'rdim. Dehqonchilik, quruvchilikda o'zimni sinadim. Mahallamizdagi eshik-deraza uchun plastik rom yasovchi ustaga shogird tushib, hunar o'rgandim. O'tgan yili "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga kirdim. Shu boisdan mahalladan yordam so'rab murojaat qildim.

Mahallamizga yoshlar yetakchisi tayinlangandan keyin menga yordam ajratilish jarayoni tezlashib, fevral oyida subsidiya asosida plastik rom kesuvchi uskuna olib berishdi. Ustozimning yo'l-yo'riqlari bilan mustaqil ravishda o'z ishimni yo'lga qo'ygan edim. Shu bilan birga, ikki nafar mahallamizdagi yoshlarni ham ishli qildim.

Mart oyida mahallamiz yoshlar yetakchisi Gulmira Sheraliyevaga murojaat qilib, dehqonchilik bilan shug'ullanish istagim borligini ayt-dim. U kishi auktsiondan yer olishimning mumkinligini tushuntirdi. Auktsionda qatnashib, 10 yil muddatga 15 sotix yerga ega bo'ldim. Dehqonchilik ishlarimga ukam va singlim yordam berib kelmoqda. Menga ajratilgan joy juda sersuv va serhosilligi uchun hozir ekilgan jo'xori urug'ining hosilini yig'ib olish arafasida turibmiz. Makkajo'xoridan qolgan joyga ikkinchi hosil urug'ini qadash niyatimiz bor.

Bugun berilayotgan yordamlar, haqiqatdan, bizga o'xshagan yoshlarning darliga malham bo'layotgani bor gap. Bundan minnatdormiz.

177

IMKONIYAT



## ICHKI ISHLAR XODIMLARINING FARZANDLARIGA IMTIYOZ

**P**rezidentimizning 2019-yil 26-fevraldagi "Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari Ichki ishlar vazirining tavsiyanomasi asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari davlat granti asosida davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga (ikkinchi ta'limdan tashqari) kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

Halok bo'lgan xodimlarning farzandlari Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya hamda Davlat bojxona qo'mitasining oliy (magistratura, ikkinchi va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limdan tashqari) va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul kvotalaridan tashqari dastlabki va kasbiy tanlov natijalari, shuningdek, ichki ishlar vazirining taqdimnomasi asosida qabul qilinadilar.

Shu jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda munosib hissa qo'shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga:

- davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalariga umumiy belgilangan qabul ko'rsatkichlari kvotasidan tashqari oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga (ikkinchi ta'limdan tashqari) kirish uchun 3 foiz kvota;
- harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun kursantlar (o'quvchilari)ni qabul qilishning umumiy sonidan 5 foiz kvota ajratiladi.



### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Xodimlarning farzandlarini ajratilgan 3 foiz kvota doirasida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish ichki ishlar vazirining tavsiyanomasi bo'yicha tanlov asosida amalga oshiriladi hamda o'rinlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imtihonlari natijalari bo'yicha to'plangan ballardan kelib chiqib abituriyent kirish imtihonlarining eng yuqori balidan kamida 30 foiz to'plagan taqdirda, ketma-ketlik tartibida taqsimlanadi.

Xodimlarning farzandlarini ajratilgan 5 foiz kvota doirasida harbiy ta'lim muassasalariga qabul qilish dastlabki va kasbiy tanlov natijalari, shuningdek, ichki ishlar vazirining taqdimnomasi asosida amalga oshiriladi.

Tavsiyanoma bir oliy ta'lim muassasasi yoki harbiy ta'lim muassasasiga bir marta kirish uchun 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi.

Xodimlarning farzandlarida ushbu qarorda ko'zda tutilgan tavsiyanoma bilan bir qatorda, muddatli harbiy xizmatni o'taganligi bo'yicha harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomasi ham mavjud bo'lsa, ularni tanlov asosida qabul qilish qo'mondonlik tavsiyanomasida belgilangan qo'shimcha ballarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

## IELTS UCHUN O'QIMOQCHIMISIZ? UNDA CHO'NTAGINGIZNI BAQUVVAT QILING



**K**un sayin rivojlanib borayotgan dunyoda qo'shimcha til bilmaslik odamni biroz xijolat qiladi. Chunki biror joyda ishlash yoki o'qish uchun ham ingliz yoki rus tilini bilish muhim. Bu yildan esa bakalavr bosqichini tamomlab, magistraturaga hujjat topshirgan talabalardan ham til bilish darajasi, ya'ni IELTS sertifikati talab qilinadi.

Til bilgan yaxshi, ammo tanga-ni boshqa tarafi ham bor deganlaridek, bu ba'zilar uchun biznesdek bo'lib qoldi. Poytaxt ko'chalarida yurarkansiz, har qadamda til kurslarining afshalariga ko'zingiz tushadi. **Metro bekatlari-yu, yerosti yo'llari ham qisqa muddatda oson til o'rganishingizga kafolat beruvchi e'lonlar bilan to'lgan.**

Metroning "Chilonzor" yo'lidan "Yunusobod" yo'lga o'tarkansiz, bunday reklamalar sizni aslo zeriktirmaydi. Reklama beruvchilar marketingning yaxshi usulidan foydalangani sabab inson miyasi bir yoki ikki daqiqa ketma-ket bir narsani ko'rsa, ko'z va miya xotirasi uni o'ziga saqlab qoladi.

Abituriyentlikda IELTS kursiga qatnaganim uchun unchalik ko'p vaqt sarflamayman, deb shunday tek-kor kurslarning biriga telefon qildim. Sinov darsiga ham borib ko'radim, ammo dars tugagach, menga sinov uchun deyilgan dars aslida 3 oylik kursning birinchi darsi ekanligini, oldindan to'lovning 50 foizini, ya'ni 2 million 500 ming so'm to'lashim kerakligi haqida chek berdi. Biroz tortishuvdan so'ng faqat o'sha darsga pul to'lab chiqib ketdim. Faqat marketingi yaxshi bo'lgan bunday kurslar qancha yoshlarning qo'yini puch yong'oqqa to'ldirgan bo'lsa ajab emas.

Chet tilini o'qitishning umumiyevropa tizimida ingliz tilini o'rgana olishning ko'plab sabablari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, sizning ayni damdagi ingliz tili darajangiz, ona tilingiz, o'rganish va mashq qilish uchun qancha vaqt sarflay olishingiz muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hujjatda ingliz tilidan ma'lum darajaga chiqish uchun necha soat shug'ullanish zarurligi belgilangan.

A1 (boshlang'ich) darajadan B2

(IELTS 5,5) natijani qo'lga kiritish uchun 720 soat davomida ingliz tili bilan mashg'ul bo'lish kerak. Bundan xulosa qilish mumkin, 2 oyda IELTS sertifikatini qo'lga kiritish uchun har kuni eng kamida 12 soatdan vaqt ajratish kerak.

Yaqinda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'qiydigan dugonam IELTS sertifikatidan 7 balni qo'lga kiritdi, buning uchun 1 yarim yil davomida qattiq shug'ullandi. Ammo juda yaxshi esimda, abituriyentlikda ham ingliz tilidan tayyorlanib yurardi. Suhbatimiz davomida **1 yarim yilda til kurslarining o'ziga 10 million so'mdan oshiqroq pul sarflaganini aytdi.**

Til o'rganishning foydasi juda ko'p. Ammo til kurslarining narxlariga biroz insonfi qo'shsak yomon bo'lmas edi. Misol uchun, Toshkent shahridagi "Inter Nation School" o'quv markazi. Sharoitlari juda yaxshi, xonalari zamonaviy uslubda bezatilgan. Kurs narxlari ham shunga yarasha, bir oy uchun 600 ming so'm. Poytaxtimizda ancha mashhur "Everest" o'quv markazida ham kurs narxlar 350 ming so'mdan boshlanib, 500 ming so'mgacha boradi.

Poytaxtda talab yuqori, shunga qarab narx ham belgilanadi. Ammo bu markazlarning asosiy o'quvchilari viloyatlik yoshlar. Tasavvur qiling, kurs narxi o'rtacha 400 ming so'm deb olaylik, bundan tashqari, turar joy uchun 500 ming so'm, ovqatlanish, yo'l haqi kabi moddiy ehtiyojlarsiz ham 1 million so'mga yaqin bo'ladi. O'quv kursida odam kam bo'lib, siz bilan alohida shug'ullansa ham, bergan pulingizga achinmay-siz, ammo o'zim borib ko'rgan kursda 30-40 tinglovchi bor. Ikki soatlik dars davomida o'qituvchi dars o'tadimi yoki uyga berilgan vazifani tekshiradimi?

Har kimning sharoit har xil. Oddiy oilaning farzandi uchun 1 yil Toshkentda bunday narxga til o'rganish biroz og'irlik qiladi. Cho'ntagi ko'targanlarning esa do'ppi osmonda. Magistraturaga hujjat topshiraman deb harakat qilayotgan talabalar, cho'ntagingiz baquvvatmi?

**Mashhura NASRIDINOVA,**

"Yoshlar ovozi" muxbiri

# QURBON HAYITI: FAZILATLI KUNLAR SHUKRONASI

Xalqimizning o'ziga yarasha shod-u xurramlilik qiladigan bayramlaridan biri bu Qurbon hayitidir. Muborak bu kunlarda barcha musulmonlar bir-birlarini bayram bilan qutlab, tabarruk keksalarimizga imyon, yoshlarga uzoq umr, tavfiq va rushd-u hidoyat tilashadi. Qarindosh-urug'lar, yor-u birodarlarini ziyorat qiladilar, yaqinlari va bemorlarning holidan xabar oladilar.

Foto: Nosir HAYDAROV

Bunday xayrli ishlar azaliy qadriyatlarimizdandir. Biror sababga ko'ra arazlashgan, gina-kuduratli tanish-bilishlar ham hayit kunlarida o'zaro uzr so'rashib, bir-birlariga quchoq ochadilar. Mo'min-musulmonlarimiz ushbu kunlarda "Kim bir kishiga yengillik yaratib bersa, Alloh unga qiyomatda yengillik beradi" degan hadisi sharifga amal qilib, ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, yoshi ulug' keksalar va faxriylarimizga hurmat-ehtirom, mehr-muruvvat, saxovat ko'rsatadilar.

Biz mansub bo'lgan Islom dinining moliyaviy ibodatlaridan biri hisoblangan qurbonlik buyuk Allohning ne'matlari uchun shukr qilishimiz va Uning yo'lida fidokorlik qilishimizning bir nishonidir. Qurbonlik diniy bir ibodat bo'lishidan tashqari, ayni vaqtda uning axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bor. Qurbonlik shu jihati bilan ham islomdagi o'zaro ijtimoiy yordamlashishning go'zal bir namunasini tashkil etadi.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan Oysha onamiz roziallohu anho rivoyat qilgan hadisda: "Qurbonlik kunlarida inson qilgan amallarning Allohga mahbubrog'i qon chiqarib, qurbonlik qilishdir. Chunki qurbonlikka so'yilgan hayvon qiyomat kuni-da shoxlari, yunglari va tuyoqlari bilan keladi. Ularning har biri uchun ajral beriladi. So'yilgan vaqtda oqqan qon yerga tushmay turib, Allohning huzurida qabul bo'ladi. Shuning uchun qurbonlikni chin dildan ado eting", deganlar.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida: "Beva va misinga g'amxo'rlik qiluvchi kishi Alloh taolo yo'lida sa'y-harakat qiluvchi yoki kechalari bilan

“

QURBONLIK KUNLARIDA  
INSON QILGAN AMALLARNING  
ALLOHGA MAHBUBROG'I QON  
CHIQRIB, QURBONLIK  
QILISHDIR.

toat-ibodat qilib, kunduzlari ro'za tutuvchi kishi kabidir", deb marhamat qilganlar.

Ushbu fazilatli kunlarda Allohning irodasi, istiqlol sharofati va yurtboshimizning ulkan g'amxo'rligi tufayli dunyo mo'min-musulmonlari qatori yurtimizdan ham minglab vatandoshlarimiz Baytullohda ulug' haj ibodatida hozir bo'lib turishibdi. Hojilar bu muborak joylarda Alloh taolodan o'zlari, oilalari va yurtlarini hiz-u himoyasida saqlashini so'rab, astoydil duolar qilishmoqda. Baytullohni tavof etgan vaqtlarida tazarru bilan ko'zlaridan to'kilgan yoshlar sababidan Alloh taolo ularga rahmat va barokotlarini inshaalloh nozil qilgusidir.

Musulmon farzandi borki, umrida bir bor bo'lsa-da, Allohning uyi - Ka'batullohni tavof qilish orzusida yuradi. Bu yil 12 ming nafardan ziyod hamyurtimiz Saudiya Arabistonining ikki muqaddas shahrida bo'lib, ayni kunlarda Islomning beshinchi arkonini ado etishga puxta hozirlik ko'rmoqdalar. Mehribon Robbimiz muborak safarda yurgan hamyurtlarimizning ibodatlarini qabul, elimiz va yurtimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan duolarini ijobat aylasin.

Mamlakatimizda Islom olamida ma'lum va mashhur sanalgan aziz avliyolar va allomalarning

muborak nomlari tiklandi, ularning qo'nim topgan joylari ziyoratgoh va qadamjolariga aylantirilib, obod etildi, ilmiy-ma'naviy meroslari qadr topdi. Muhtasham masjidlar bunyod etilib, muqaddas dinimizdagi insonparvarlik g'oyalarning mazmun-mohiyatini keksa-yu yosh ongiga singdirish uchun barcha sharoitlar muhayyo etildi. Bularning barchasi uchun, albatta, shukrona qilishimiz kerak.

Ulug' allomalarimiz "Hayit kunlari shodlikni izhor qilish dinning shiorlaridandir", deganlar. Islomning shiori bo'lgan Qurbon hayitida xursandchilgimizni, saxovatimizni har qachongidan ko'ra ko'proq namoyon qilishimiz zarur.

Yana bir bor barchamizga Qurbon hayiti muborak bo'lsin. Go'zal diyorimizni turli bala-ofatlardan Yaratganing o'zi asrasin, keyingi Qurbon hayiti kunlariga sihat-salamatlikka yetib borishimizni hammamizga nasib etsin. Jamiyatimizdagi ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlarga muvaffaqiyatlar, xalqimizga xotirjamlik, farovonlik va qut-baraka ato etishini tilab qolamiz.

Ubaydulloh ABDULLAYEV,

Farg'ona viloyati bosh imom-xatibi

O'ZA

**Yoshlar ishlari agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasi, Yangiyer shahar yoshlar yetakchilari hamda viloyat volontyorlar maktabi yoshlari Qurbon hayiti munosabati bilan kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olib, hayitlik tarqatdi.**




Foto: Anvar TO'YCHIEV

## YOSHLAR MUAMMOLARI TINGLANMOQDA

Shu kunlarda Buxoro viloyatining barcha hududlarida sektor rahbarlari hamda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i ishtirokida uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Yoshlar muammolarini o'rganish, ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlarni aniqlab, ularni "Yoshlar daftari"ga kiritish choralarini ko'rish, yoshlarga ko'maklashish maqsadida o'tkazilayotgan shunday uchrashuvlardan biri Buxoro shahrining 2-sektor hududida bo'lib

o'tdi. Unda 38 nafar yosh o'z muammo va takliflari bilan ishtirok etdi.

Jondor tumanidagi "Boliob" mahallasida tashkil etilgan navbatdagi uchrashuvda Yoshlar ishlari agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi boshlig'i Shavkat Rahmonov qatnashib, bugungi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarga berilayotgan yuksak imkoniyatlar haqida aytib o'tdi. Yig'ilishda yoshlar tomonidan ko'tarilgan 20 ta muammo va takliflardan 7 tasi joyida hal qilinib, qolgan 13 ta (shundan 9 na-

far yoshlar "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'zini o'zi band qilish maqsadida asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilish uchun, 2 nafari to'lov-kontraktini to'lash, 1 nafari safarbarlik chaqiruv rezervi badalini qoplash, 1 nafari haydovchilik kurslariga o'qish uchun subsidiya ajratishda amaliy yordam so'ragan) yoshning murojaati tez kunda hal etiladigan bo'ldi.

Iqbol PARDAYEVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri



# G'AROYIB TABIAT MUZEYI

IKKI BOSHLI BUZOQ, BIR KO'ZLI QO'ZICHOQNI  
KO'RISHNI ISTAYSIZMI? UNDA MARHAMAT!

Loyiha muallifi: Ziyoda RAHIMBOYEVA

**Yoshlarni muzey sayohatlariga ko'proq jalb etish, tarixiy bilimlarini yanada boyitish va tahririyatimiz bilan mustahkam aloqani yo'lga qo'yish maqsadida tashkil etilgan loyihamizning 2-sonini e'tiboringizga havola etamiz!**

Qanday ishtirok etsam bo'ladi, nima qilishim kerak, deytganlar va loyihaga qiziqib qolganlar diqqatiga, loyihaning har bir sonini gazetamizda e'tibor bilan kuzatib boring, sayohat uchun tanlangan muzey haqidagi qiziqarli ma'lumotlar va muzey xodimlari bilan uyushtiriladigan intervyularni o'qing! Eng asosiysi, loyiha doirasida belgilangan vaqt ichida ushbu muzeyga siz ham tashrif buyurib, sayohat davomida olgan taassurotingizni va fotosuratlaringizni bizga taqriz shaklida yozib jo'nating!


Eng yaxshi taqriz egasi tahririyat tomonidan maxsus sovg'alar: o'zbek va jahon adabiyotining sara adabiyotlaridan yig'ilgan beshlik, kreativ tashakkurnoma va loyiha-niing navbatdagi manzili bo'lishi kutilayotgan **muzeysga ikki kishilik (gid hamrohligidagi) bepul yo'llanmaga ega bo'ladi va yozgan taqrizi gazetada e'lon qilinadi.**



**Nasiba  
MIRBOL'AYEVA,**  
O'zbekiston davlat tabiat muze-  
yining zoologiya bo'limi katta  
ilmiy xodimi:

– Prezidentimizning 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida bizning muzey ham e'tibor markaziga qo'yildi. Qaror doirasida muzeyni ta'mirlash ham asosiy masalalardan biridir. Unga ko'ra, muzeyni so'nggi texnologiyalar bilan jihozlash, sayohatchilar uchun yanada qiziqarli va foydali bilimlar berish uchun "3D", "4D", "7D" gologrammalari va yana bir qator yangi loyihalar bilan boyitish, yosh, ko'p tilni biladigan, kreativ fikrlaydigan xodimlarni jalb etish belgilangan. Qarorda qayd etilganidek, muzeyda maxsus suvenir va esdalik sovg'alari sotishga mo'ljallangan do'konlar, muzey-restoran tashkil etish ham rejalashtirilmoqda. Eng so'nggi axborot texnologiyalari bilan jihozlanib, butkul yangicha ko'rinishda sizni kutayotgan muzeyimiz eshiklari siz aziz sayohatchilar uchun doimo ochiq.

Muzeyning nafaqat respublikamiz hududi, balki butun mintaqadagi muzeylardan ajralib turadigan jihati uning juda boy fondidir. Masalan, 350 mingdan ortiq hasharot namunalari Markaziy Osiyodagi eng katta entomologiya kolleksiyasi hisoblanadi.



## NECHTA BO'LIM BOR?

Boy ilmiy zaxiraga ega muzeyning geologiya bo'limida 1928 dona, zoologiyada 4409 dona, kolleksiya va entomologiyaga oid bo'limda esa 356 722 dona hasharotlar kolleksiyasi o'rin olgan. Asosiy fondagi eksponatlar 363 059 dona bo'lib, ko'pchilik sayohatchilarni qiziqtiruvchi umurtqali hayvon va qushlar tulumlari 4 mingdan oshiqdir. Bular haqida 17 nafar ilmiy xodim tomoshabinlarga 4 ta til (o'zbek, ingliz, rus, turk tillari)da gidlik qilishga tayyor.

## CHIPTA NARXLARI BILAN TANISHING!

Muzeysevar bolajonlar uchun, agar ular 7 yoshdan oshmagan bo'lsa, kirish mutlaqo bepul! Bu imtiyoz II Jahon urushi qatnashchilari va nagiron shaxslar uchun ham amal qiladi. Agar siz 18 yoshga to'lmagan bo'lsangiz, 5 000, undan oshgan bo'lsangiz, 15 000 so'm to'lov qilasiz. Maxsus chegirmali narxlardan foydalangan holda talabalar 10 ming so'm, nafaqaxo'rlar esa 5 ming so'mlik chipta bilan qiziqarli muzeyni sayohat qilib chiqishlari mumkin.



Loyihada ishtirok etish istagidagi aziz mushitariylardan joriy yilning 25-iyul sanasiga qadar [yoshlar-ovozi@mail.ru](mailto:yoshlar-ovozi@mail.ru) elektron pochta manzili-da muzeyga uyushtirgan sayohat va undan olgan taassurotlar haqidagi erkin taqrizlar va taqrizga qo'shimcha sifatida muallifning muzey binosi bilan tushgan kreativ, **#Men\_va\_muzey** heshtegli selfi suratini kutib qolamiz va qabul qilamiz. Taqrizingizda o'zingizda yorqin taassurot qoldirgan eksponatlar, ularning tarixi, muzeyning tuzilishi yoki devorga ishlangan suratlar va tarixiy hikoyalar haqida ham keltirib o'tishingiz mumkin. Qani, endi ko'p o'ylanmay muzeyga yo'l oling!

## IJTIMOY

### TARMOQLARDA...

Agar sizda muzey haqidagi yangiliklarni kuzatib borish istagi bo'lsa, buning ham imkoni bor! Instagram va Facebook tarmoqlaridagi "tabiat\_muzeyi" rasmiy sahifalari, @tabiat\_muzeyida telegram kanali, buningdek, muzeyning "tabiatmuzey.uz" sayti orqali yangiliklarni kuzatib borishingiz va turli foydali ma'lumotlarga ega bo'lib, bilimingizni boyitishingiz mumkin.

## ENG QIZIQARLI EKSPONATLAR

Muzeydagi barcha ko'rgazmali materiallar o'ziga xos bo'lib, kishi e'tiborini jalb eta oladi. Ayniqsa, irsiyat, chatishtirish, hayvonlar va odamlarda uchrovcchi kasalliklar, mahsulotlarning turli navlarini ixtiro qilish natijasida yangiliklar yaratish haqidagi eksponatlar har bir sayohatchida qiziqish uyg'otishi aniq. Ammo eng qiziqarli eksponatlar sifatida ikki boshli buzoq va qo'zichoq, bir ko'zli qo'zichoq, quloqsiz qo'zichoqlarni keltirish mumkin. Siz ham muzeyga tashrif buyurib, o'zingiz uchun ko'pgina qiziqarli asarlarni kashf qiling.



Loyihamizning navbatdagi safari poytaxtimizning Olmazor tumani-da joylashgan O'zbekiston Davlat tabiat muzeyiga bo'ldi.

Zarqaynar ko'chasida shunday muzey borki, yaqin kunlarda o'zining 146 yoshini qarshilaydi! Markaziy Osiyoning dastlabki ilmiy-ma'rifiy muassasalaridan biri hisoblanuvchi bu dargohga bir kunda 100 nafardan ziyod, yiliga 3000 nafarga yaqin sayohatchi tashrif buyuradi.

1876-yili "Toshkent muzeyi" nomi bilan tashkil etilgan, 1921-yili "O'rta Osiyo Bosh muzeyi", 1930-yildan esa "O'rta Osiyo tabiat muzeyi va ishlab chiqarish kuchlari" nomlari bilan atalib, 1935-1963-yillar oraliqida bir nechta tashkilot va muassasalar tasarrufiga o'tkazib kelingan muzey 1963-yildan buyon "O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi" nomi bilan ataladi. U bugungi kunda Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazilgan.

YANGI LOYIHA:


# “BIZNING YOSH IJODKORLAR”

**S**an'at – inson qalbini uyg'otuvchi, ruhini tarbiyalovchi, hayotga muhabbat hissini uyg'otuvchi qudratli kuch. Bu kuch orqali asrlar davomida xalqlarning madaniyati yuksalib kelmoqda. San'atning yaralishi va dunyo yuzini ko'rishiga turtki bo'luvchi insonlar rassom, haykaltarosh, kompozitor, kulol va boshqa shaxslardir. Bizning zaminimizda ham iqtidorli va noyob ijodkorlar juda ko'p. Mana shunday yosh ijodkorlar va ularning asarlarini xalqimizga tanitish, yoshlarning san'atga mehrini oshirish maqsadida yangi – “Bizning yosh ijodkorlar” loyihasini e'lon qilamiz.



Loyihaning ilk sonida yosh rassom Isomiddin Eshonqulov ijodi bilan tanishamiz. Isomiddin Eshonqulov 2011-2014-yillarda Benkov nomidagi respublika rassomlik kollejida, 2014-2018-yillarda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil olgan. Uning ijodi boshqalarnikidan sezilarli darajada ajralib turardi.


Asarlarida syurrealizm elementlari bo'lib, u bir-biriga zid, ba'zan esa absurd obrazlardan foydalanadi, insonning ichki dunyosi, uning o'tmishi va kelajagi, koinotdagi o'rnini haqida so'zlaydi.



“Rasmlarimda men ko'plab savollarga javob izlayman: inson dunyoda qanday o'rin tutadi, u qayerdan keladi va qayerga boradi, uning ilohiy vazifasi nima, u kim, men kimman, biz kimmi? Bu savollar va odamlar – mutlaqo hamma narsa meni ilhomlantiradi. Va qaysidir ma'noda rasmlarim menga chuqur ta'sir qiladigan bu savollarga javobdir. Balki shuning uchun ham rasmlarimni emas, ijod jarayonini yaxshi ko'raman. Rassom sifatida o'sishga, rivojlanishga va bir kun kelib tarixda iz qoldiradigan rasm yaratishga ahd qilganman”, – deydi rassomning o'zi asarlari haqida.

2021-yilda Isomiddin Eshonqulov Shvetsariyaning O'zbekistondagi elchixonasida ko'magida “Bonum Factum POP ART Urban 2021” galereyasi loyihasida ishtirok etdi, yil boshida uning “Bo'sh devorga nazar” ko'rgazmasi tashkil etildi.

Loyiha orqali o'z ijod namunalari e'lon qilish istagida bo'lgan barcha yoshlarni chorlab qolamiz. Bizning manzilimiz: [yoshlar-ovozi@mail.ru](mailto:yoshlar-ovozi@mail.ru)



Loyiha muallifi: **Shahribonu RAHMATOVA**

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Sardor SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,**  
**Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 rasmi bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

“Shara” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi: kelishilgan narxda. Buyurtma: O-755. Adadi – 10588. Boshiga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

